

TIL VA JAMIYAT

*Andijon Davlat Chet tillari instituti**Roman-German va Slavyan tillari fakulteti**Kompyuter lingvistikasi yo'nalishining 1-kurs talabasi**Abdubohiyeva Husnidaxon Anvar qizi**Ilmiy maslahatchi: Filalogiya**fanlari bo'yicha falsafa doktori datsent**Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrasida o'qituvchisi**Xolisova Gavharoy Mannobjon qizi*

Annotatsiya: Jamiyat rivojlanib borgan sari til ham o'zgaradi. Masalan, texnologik yangiliklar tilda yangi so'zlar paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Bu kabi so'zlarga yaqqol misol qilib internet, kompyuter, sun'iy intellekt va shu kabi boshqa so'zlarni keltirish mumkin. Bu so'zlar jamiyatimiz taraqqiy etib boshlaganidan keyingina tilimizga kirib kelgan. Bu so'zlar Alisher Navoiy, Amir Temur va shu kabi ota-bobolarimiz davrida umuman mavjud bo'lmagan va hech kim foydalanmagan. Demak jamiyatimiz rivoji ya'ni til siyosati, ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari ham tilning rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Til va jamiyat, internet, kompyuter, sun'iy intellekt, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

Abstract: As society develops, language also changes. For example, technological innovations are causing new words to appear in the language. A vivid example of such words is the Internet, computer, artificial intelligence and other similar words. These words came to us only after our society began to develop. These words did not exist at all during the time of Alisher Navoi, Amir Temur and our ancestors, and no one used them. So the development of our society, that is, language policy, education system, and mass media, also has a strong impact on the development of language.

Keywords: Language and society, Internet, computer, artificial intelligence, Constitution of the Republic of Uzbekistan.

Аннотация: По мере развития общества меняется и язык. Например, технологические инновации приводят к появлению новых слов в языке. Ярким примером таких слов являются интернет, компьютер, искусственный интеллект и другие подобные слова. Эти слова появились у нас только после того, как наше общество начало развиваться. Во времена Алишера Навои, Амира Темура и наших предков этих слов вообще не существовало, и никто их не использовал. Поэтому развитие нашего общества, то есть языковая политика, система образования и средства массовой информации, также оказывает сильное влияние на развитие языка.

Ключевые слова: *Язык и общество, Интернет, компьютер, искусственный интеллект, Конституция Республики Узбекистан.*

Til va jamiyat o'zaro bog'liq ijtimoiy hodisalardir. Til-insonlarning o'zaro fikr almashish, his-tuyg'ularini ifoda etish va axborot uzatish uchun xizmat qiluvchi ijtimoiy hodisadir. Til-jamiyat a'zolarini birlashtiradi, ularni madaniyati, dunyo qarashi va tafakkurini aks ettiradi. Til insoniyat bilan birga paydo bo'lgan va uning hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Jamiyat esa shu tildan foydalanuvchi insonlarning birligidir. Til jamiyatdan tashqarida yashay olmaydi, jamiyat esa tilsiz mavjud bo'la olmaydi.

Til inson hayotida bir necha zarur ijtimoiy hodisalarni bajaradi. Birinchidan, til insonlar o'rtasidagi asosiy muloqot vositasi bo'lib, u fikrni ifodalash va tushunishni taminlaydi. Ikkinchidan, til orqali odamlar bilim, tajriba, tarixiy merosni bir avloddan boshqasiga o'tkazadi. Uchinchidan, til-millatning ruhidir. Har bir xalq o'z tili tufayli tarixini, urf-odatini, qadriyatlarini saqlab qoladi. To'rtinchidan, bitta tilda so'zlashuvchi odamlar doim bir-birlarini tushunadi, bu esa jamiyatda birdamlikni kuchaytiradi.¹

¹ Rahmatullayev SH. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1981

Til-inson va jamiyatning eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Shunday ekan tilimizni asrab-avaylashimiz va uni kelajak avlodga yetkazishimiz darkor. Ota-bobolarimiz bejizga aytishmagan: “Tilni asrash-millatni asrash demakdir”.

Jamiyat rivojlanib borgani sari til ham o‘zgaradi. Masalan, texnologik yangiliklar tilde yangi so‘zlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi so‘zlarga yaqqol misol qilib internet, kompyuter, sun‘iy intellekt va shu kabi so‘zlarni keltirish mumkin. Bu so‘zlar jamiyatimiz taraqqiy eta boshlaganidan keyingina tilimizga kirib kelgan. Bu so‘zlar Alisher Navoiy, Amir Temur va shu singari ota-bobolarimiz davrida umuman mavjud bo‘lmagan va hech kim foydalanmagan. Demak, jamiyatimiz rivoji ya’ni til siyosati, ta’lim tizimi, ommaviy axborot vositalari ham tilning rivojlanishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Til-madaniyatning ko‘zgusi. Har bir xalqning qadriyatlari, urf-odatlar va dunyo qarashi tilda namoyon bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “Assalomu alaykum” yoki “Rahmat” kabi so‘zlar O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan xalqning axloqiy fazilatlarini namoyon qiladi. Shunday ekan tilni yo‘qotish – madaniyatni yo‘qotish demakdir.²

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga ko‘ra, o‘zbek tili – davlat tili hisoblanadi.(O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasi) Davlatimiz Konstitutsiyasida o‘zbek tili to‘g‘risida ko‘plab moddalar keltirilgan. Bu moddalarga ko‘ra barcha davlat idoralari, tashkilotlar, o‘quv muassasalari, hujjatlar va rasmiy ish qog‘ozlarini yuritish o‘zbek tilida olib borilishi lozim. Shu bilan birga, modda boshqa millat vakillarining tillarini hurmat qilishni ham kafolatlaydi. Ya’ni O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qilayotgan har bir fuqaro o‘z milliy tilida gaplashish va yozish huquqiga ega. Til siyosatining asosiy maqsadi esa o‘zbek tilining nufuzini oshirish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazishdir. Bu qonunlar biz yoshlarni ona tilimizni qadrlashga undan, undan to‘g‘ri foydalanishga ya’ni to‘g‘ri yozib, to‘g‘ri

² Madaliyev A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2008.

so‘zlashga undaydi. Misol qilib O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining quyidagi moddalarini keltirish mumkin.³

2-modda:

Davlat tili – O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan barcha davlat idoralari, muassasalari, korxonalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ishlatiladigan rasmiy tildir.

3-modda:

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi barcha millat vakillari o‘z tillarida erkin foydalanish huquqiga ega.

4-modda:

Davlat tilini bilish – fuqaroning huquqi, ammo majburiy talab sifatida emas, balki hurmat va ehtiyoj sifatida qoraladi.

Til va jamiyat bir-biriga chambarchas bog‘liq tizimdir. Til jamiyat hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi, jamiyat esa tilni rivojlantiradi. Tilni saqlash, uni rivojlantirish va undan to‘g‘ri foydalanish har bir fuqaroning burchidir.⁴

Mening fikrimcha, til va jamiyat bir – biridan ajralmas hodisalardir. Chunki til – bu insonning fikrlash quroli, jamiyat esa shu fikrni ifoda etadigan va uni qadrlaydigan muhitdir. Agar til bo‘lmasa, odamlar bir-birini tushuna olmaydi, jamiyatda tartib va birlik bo‘lmaydi. Til faqat aloqa vositasi emas, u xalqning tarixi, madaniyati va ruhini ifoda etadi. Har bir millat o‘z tili tufayli o‘zligiga ega bo‘ladi. Masalan: o‘zbek tili bizning milliy g‘ururimiz, ajdodlarimizdan qolgan bebaho merosdir. Shuning uchun ham o‘z tilimizni asrab – avaylash, to‘g‘ri ishlatish va uni rivojlantirish har birimizning burchimiz deb o‘ylayman. Bugungi kunda texnologiya, internet va xorijiy tillarning keng tarqalishi ona tilimizga bo‘lgan e‘tiborni biroz susaytirayotgani ham bor gap. Ammo menimcha, bu holatda eng muhimi – ona tilimizni zamon bilan hamnafas rivojlantirish, uni orqada qoldirmaslikdir.

³ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.

⁴ Asqarova M. Til va jamiyat. – Toshkent: Universitet, 2002.

Xulosa qilib aytganda, til va jamiyat bir – birini to‘ldiruvchi ikki tushunchadir.

Jamiyat til orqali rivojlanadi, til esa jamiyat orqali yashaydi.

Tilni bilish – bu o‘zligini anglashdir.

Tilni asrash – bu millatni asrashdir.

Biz yoshlar, ayniqsa talabalik davrimizda, o‘z tilimizni to‘g‘ri, boy va chiroyli ishlatishga harakat qilishimiz kerak, chunki tilning kelajagi – biz yoshlarning qo‘limizda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Asqarova M. Til va jamiyat. – Toshkent: Universitet, 2002.
2. Madaliyev A. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent: Fan, 2008.
3. Rahmatullayev SH. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1981.
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023.